

VAQTNING SINGAN QANOTLARI

Alijonova Muharramoy Lazizbek qizi

Andijon viloyati Buloqboshi tumani 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi

7-"B" sinf o'quvchisi

(Fantastik hikoya)

1-qism. Sakrash

2026-yil soat-23:47. Osmonda millionlab yulduzlar miltillab turardi. Tez-tez osmondan kometalar uchib o'tardi. Rustam tom ustida o'zi yaratgan Vaqt mashinasini sozlab o'tirardi. Birdan mashina o'chib qoldi va uning ekranida yozuv paydo bo'ldi: "Vaqt muvozanati 2050-yilga ko'chirildi."

"Bu mashinadagi xatolik bo'lsa kerak. Hozir tekshirib ko'raman."- Deb Rustam mashinaning ichini ko'zdan kechira boshladi.

Lekin shu payt birdan mashina eshigi yopilib, uning ichida kuchli nurlanish sodir bo'ldi. Nur mashina ichini o'rab oldi. Uning shu qadar yorqinligidan Rustamning ko'zlari qamashib ketdi. Mashinadagi biror narsa ko'zga ko'rinmasdi. Bir necha soniyalardan so'ng nur tarqalib ketdi. Mashina eshigi ochilib, Rustamni tashqariga uloqtirdi. U na ko'z bilan qarasa-ki, atrof butunlay o'zga. Go'yoki u tom ustida emas boshqa olamda edi. Qarshisidagi reklama bannerida esa: "2050-yil texnologiyalar hukmronlik asri"-yozuvi turardi. Ha, u kelajakdagi dunyoga kelib qolgandi. U bu yerda yana kimdir borligini sezdi. Rustam ortiga o'grildi va birdan rangi oqarib ketdi. Uning qarshisida 40 yoshlar atrofidagi, yuzlariga ajin tushgan, sochlariga oq oralagan kishi turardi. Ha, u Rustamning kelajagi edi. "Sen kimsan?"- dedi Rustam qo'rquv aralash hayrat bilan. "Men - bu sen. Faqat sening kelajagingman."

"- Yo'q-yo'q, bu bo'lishi mumkin emas. Men tush ko'ryabman. Hozir oyim meni maktabga borish uchun uyg'otadi."- deya Rustam qarshisidagi odamga alanglagancha qotib qoldi.

-Yo'q, bu tush emas. Hozir barchasi bilan tanishtiraman. Shunda barchasini bilib olasan.

2-qism. Tanishuv

Barchasi o'zgacha. Rustamning atrofidagi dunyo butunlay o'zgargan. Osmon minglab dronlar bilan to'lgan. Ular uylarga jo'natmalarni yetkazishardi. Birorta yuk mashinasi ko'rinmaydi. Barchasi havoda muallaq turgan elektromobillar. Birorta hovlilil uy yo'q. Barchasi ko'p qavatli uylar. Har bir qavatdan bir-biriga ulangan quvrlar o'tkazilgan. Odamlar uydan turib chiqindilarini shu quvrlarga tashlash orqali ularni qayta ishlash korxonalariga topshirishlari mumkin.

"-Ana! Poyezd o'tib ketdi."- dedi Rustam ko'zlari chaq nab.

-Bu poyezd relslarda magnit tortishish kuchi orqali harakatlanadi.

Goh-gohida uylar o'z o'rnini o'zgartirib turardi. Barcha joy texnika bilan to'la, hammasi hayratlanarli, barchasi qiziq. Lekin odamlar, ular juda g'alati. Ko'zlarida bo'shliq bor.



Hammasi miyasiz robotlar kabi bir-biriga e'tibor bermay, ko'zlarini smartfonlardan uzmay, bir chiziqda harakatlanishardi. Hammasining qulog'i ostida yashil chiplar porlab turardi. Huddi kimdir ularni bir tizimda boshqarayotganday.

-Juda shubhali, lekin nega? Nega ular bu ahvolda? Javob ber!

-Bir hayolparast ixtirochi barchasini aralashtirib yubordi. Hammasini u qildi.

-Kim?!

-Sen. Sen qilding barchasini. Patent egasi bo'lish uchun o'tmishni ko'rish va tuzatish imkonini beradigan "Vaqt mashinasi"ni yaratding. Ammo so'ngi bosqichda mashinaga o'tmishga qaytaruvchi emas kelajakni o'zgartiruvchi algoritmi kiritding. Bu ishing juda kata xato bo'ldi.

Shu payt birdan yer qimirlab ketdi. Dastlab kuchsiz siljish keyin esa buyuk yer qimirlashi. Signalizatsiyalar ishga tushib ketdi. Evokuatsiya!

3-qism. Evokuatsiya

Osmondagi minglab dronlar yerga do'l kabi yog'ila boshladi. Dronlar o'zlaridan nur chiqarar, nur esa odamlarni ichiga tortardi.

-Vaqt tugadi. Marsga. Hamma marsga uchib ketadi. Men ham.

-Lekin men-chi, men nima qilaman?

- Senga faqat shu bilan yordam bera olaman: "Insoniyat kelajagi seni qo'lingda."

Hamma yoq qulayabdi, hamma yoq portlayabdi, hamma uchib ketyabdi. Lekin odamlar, ular juda xotirjam. Birorta qiyqiriq ovozi eshtilmayabdi, hech kim vahima qilmayabdi. Go'yo uchib ketayotganlar odam emas ongsiz va hissiz mavjudotlar edi.

Dronlar marsga yetib kela boshladi. Ular odamlarni olib kelishardi-yu, yana yerda qolganlarni olib kelish uchun qaytib ketishardi. . Marsning qizg'ish osmoni ostida, keng bo'shliqni ko'rishdi. Har bir kishi o'zining kelajagiga, orzulariga qadam qo'yib ketganday, bir-biriga tashrif buyurayotgan edi.

Marsda hech qanday yovvoyi xato yo'q edi. Ammo, bu yerdagi atmosferaning yerdagiga nisbatan keskinlashishi, begona dunyoning sirli va xavfli tabiati biroz qo'rquvga solardi. Marsning yuzasida g'aroyib shakllar, sirli va qattiq toshlar va boshqa begona elementlar mavjud edi. Biroq ularning yerdagi hayot bilan o'xshashligi shundaki, noto'g'ri terilgan algoritmi faqatgina yerni emas, balki, marsni ham o'zgarishsiz qoldirmagandi. Barchasi raqamlashtirilgan dunyo. Barcha odamlar bir joyga to'planib, bir-birlariga qarab turishardi. Biroq, ularda hech qanday his-tuyg'ular yo'q edi. Bu yerda hayot yo'q, faqat bir qat'iylik bor. Yaratilgan yangi jamiyat faqat hayot uchun kurashish va bir tizimda ishlashga mo'ljallangan edi.

4-qism. Muhim qaror

Rustam hamon qilgan xatosini o'yalab yerda qotib turardi. Vanihoyat u tushunib yetdi. U xatosini to'g'irlashi kerak. Hozir uning oldida ikki yo'l bor:

1.Yoki algoritmi tiklab, millionlab odamlar hayoti va kelajagini saqlab qoladi, lekin butunlay ortga qaytolmay, butun umri yolg'izlikda o'tadi.



2.Yoki Vaqt mashinasini sindirib, uyga, ota-onasining bag'riga qaytadi, lekin kelajak va millionlab odamlar halok bo'ladi.

U juda ko'p o'yladi. Bir tomonda uni odamlarga rahmi kelar, ikkinchi tomonda esa, onasining: "bolam, ehtiyot bo'l"- degan gaplari uyga qaytishga undardi. U kelajakni qutqarishga ahd qildi. U algoritmni tiklashga kirishdi. U har algoritmni qayta yozgani sari o'tmishda o'tkazgan kunlari, ota-onasi, do'stlarining kulgulari xullas, hamma-hammasi huddi bir hikoya kabi g'amgin musiqa sadolari ostida ko'z oldidan o'tib borardi. Algoritm tiklandi. Portlashlar, qulashlar tamom bo'ldi. Binolar o'z o'rniga kela boshladi. Dronlar odamlarni marsdan yerga tashiy boshladilar. Ular odamlarni yerga qo'yishardi-yu, g'oyib bo'lishardi. Ilk yig'i ovozi, ilk kulgu ovozi, ilk chin dildan aytilgan so'zlar, bularning barchasi Rustam uchun baxt edi. Ammo endi u butun umr yolg'iz hayot kechirishga mahkum edi.

Xulosa

Hikoya shu bilan tugadi, lekin Rustanning qalbida bir savol o'zining joyini topadi: "Biz qanday dunyo yaratmoqchimiz?" U o'zini qurbonga aylantirib, butun bir kelajakka umid bag'ishladi. Ammo, aslida, dunyo o'zgaradi, faqat biz o'zgarishni qabul qilishimiz kerak. Va bu tanlov, har birimiz uchun, eng katta imtihon bo'ladi. Kelajakni qurish, ba'zida o'zingni yo'qotishdan iboratdir, lekin bu yo'lni tanlashda biz insoniyatni, uning qalbini va haqiqiylikini saqlashimiz kerak.

To'g'ri, intellektlar hayotimizni yengillashtiradi, lekin ular bizga insoniy tuyg'ularni his qildiradi olishmaydi, ular bizga baxt va quvonch bera olishmaydi. Albatta, robotlarni, intellektlarni yaratish katta kashfiyot, lekin insoniy his-tuyg'ularni saqlab qolish ulkan jasoratdir.

Albert Eynshteyn " Zamonaviy texnologiyalar inson muloqotidan ustun keladigan kundan qo'rqaman"- deb bizni ogohlantirgan edi.

